



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

**Yabarbergenova Shadigul Abdullayevna**

**Jumabaeva Elvira Muratbayevna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar*

*1-sonli kasb hunar maktabi o'qituvchilari*

**Annotasiya:** Uchbu maqolada farzandlar tarbiyasida, ularning barkamol avlod, yetuk shaxs bo'lib yetishishida sharq mutafakkirlarining fikrlari va ahamiyati, farzandlar tarbiyasida ota-onaning o'rni, bolalarimiz kelajagi porloq, hayoti mazmunli o'zlari esa tarbiyalı o'qimishli, mas'uliyatli, vijdonli bo'lishida buyuk ajododlarimizning bizga qoldirgan betakror tarjibalari, ahamiyatli fikrlarining o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, sharq mutafakkirlari, ota-onalar, farzandlarimiz kelajagi, axloqiy tarbiya, xulq-atvor, fazilatlar, komil inson.

Bizning xalqimiz o'zining uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lishi bilan birga avlodlarimizda odamiylik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarning shakllanishida o'ziga xos tajribalarini to'plab kelgan.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonlarning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi hisoblanadi.

Tarbiya — arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim

bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish ma'nolarini bildiradi.

Pedagogik manbalarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday mas'uliyatli ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, tarbiyalı, xushxulqli, vijdoni



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

pok insonlar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz farzandlarimizning baxtini, kamolini, buyuk inson bo'lib etishishini ko'rish uchun bolalarni sog'lom, barkamol etib tarbiyalashda biz o'z e'tiborimizni qaratishimiz muhim hisoblanadi.

Ta'lim tiziminining barcha bo'g'inlarida "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi" deb ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Haqiqatdan, farzandlarimizning barkamol shaxs bo'lib etishishida ular o'z fikriga ega, biror kasb egasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Farzanlarimizning komil inson bo'lib tarbiya olishida bizga ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos fikrlari kata ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya haqida so'z borganda, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan chuqur ma'noli fikri o'rinnlidir. Buyuk bobomizning bu fikrlari asrlar bo'yи millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda bizga shunchalik, ko'proq ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mutafakkir Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib: "Farzand qanchalik bilimli. Aqli-hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bunda ota o'z bolasini nazorat qilib, har xil hunarlar o'rgatsa, hulqi go'zal bo'lishi uchun farzandiga bilim sirlarini o'rgatib borsa bola haqiyqiy insoniy fazilatlarga ega bo'ladi.

Ulug' bobokolonimiz Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosa kelib chiqadi va o'z ahamiyatini kasb etadi.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini ta'kidlaydi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; Ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan chin dildan aytiladi.

Ona bolasiga alla aytish orqali uni ovitish, uxlatish bilan birga uning badan tarbiyasi, musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Allaning turlari juda ko'p, chunki har bir ona o'z bolasi uchun o'z allasini yaratadi.

Qarag`im menin` jasinda,



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Jasildan qalpaq basında,  
A'shekeyli aq otaw,  
Ag`asının` qasında.

Ona allasida bola dunyoni, o'zi yashayotgan muhitini yoqimli musiqa hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega so'zlar bilan taniy boshlaydi.

Beshik qoshig'i barcha xalqlarda uchraydi. O'zbek xalqida "alla", qoraqalpoq xalqida "ha`yyiw" deb qo'llaniladi va o'z mazmunini saqlab qoladi. Qoraqalpoq beshik qo'shig'ida bu alla aytish, tebratish yoki bolani oldiga olib o'tirib bir qolipda tebratish tuchunchasini beradi. "Ha`yyiw-ha`yyiw" qoraqalpoq xalqida, o'zbek xalqida "Alla-allá" so'zleri beshik qo'shig'ida asosiy o'rinni egallaydi. Alla onaning o'z bolasiga mehri bilan birga, vataniga sodiq farzand qilib tarbiyalashda ahamiyati kattadir.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiatini bilan bog'laydi. Uning fikricha, inson o'z hayoti davomida bolalariga yaxshi hislatlari bilan ibrat bo'lmosh'i zarurligini ta'kidlaydi. Ota-onan har qanday harakat qilishda ehtiyoj bo'lmosh'i lozimligini tushuntirib o'tadi. Ota-onalar bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar tashkil etishi, ular bilan birga o'zaro suhbatlar olib borish maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqlikdan, uyqusizlikdan saqlash kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqarashi va yaxshi xulqlarni paydo bo'lishi bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yaqindan yordam beradi deb ko'rsatib o'tadi.

Alisher Navoiy bobomiz ta'kidlashicha: Ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoying obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziliginini ol! deb aytib o'tadi.

Berdaq bobomiz oilaning bola tarbiyasida, muhim o'rinni tutishni aloxida ta'kidlaydi, oilada ota - onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lsa tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkinligini tushuntiradi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug'ilgan boshlab tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilar, va albatta uning ota - onalari hisoblanadi. Uning fikricha barcha odamlar mehnatsevar, insonparvar va adolatli bo'lsa jamiyat gullab yashnaydi, rivojlanadi. Buning uchun esa, xalqqa ta'lim berish, unda ijobjiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim degan fikrlarni keltirib o'tgan.

Xulosa qilib aytganimizda, farzandlar tarbiyasida ota-onaning o'rni aloxida e'tirofga loyiq. Bolalarimiz kelajagi porloq, hayoti mazmunli o'zlari esa tarbiyali



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

o'qimishli, mas'uliyatli, vijdonli bo'lishida buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan betakror tarjibalari, ahamiyatli fikrlarining o'rni beqiyosdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston Yoxud axloq" Toshkent. 1992.
2. Ayimbetov Q, Xalıq danalig`ı. No'kis «Qaraqalqaqstan » baspasi 1988.
3. Jarimbetov Q, Allambergenov I, Nzammatdinov J. Qaraqalpaq folklorı. Tashkent. 2018.
4. N.P.Jumaboyev "Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari". Науки об образовании. 2021.
5. Samarqand viloyoti. Samarqand shahar shahar xalq ta'limi bo'limi. Xolmotova Fazilat Baxtiyor qizi. Umumta'lim maktablarining tarbiya fani darslarida foydalanish uchun o'quv qo'llanma. Samarqand.2023.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.google.com](http://www.google.com)